



# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.


Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 38,3 mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 31,9 mingta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 91,7 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 89,7 foiz) tashkil etdi.

*Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar  
fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda.*

## Faoliyat ko‘rsatayotgan


## Ro‘yxatdan o‘tgan




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Boshqa turlar

2024- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 585 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 791 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida




2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda


## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish




Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2024- yil 1- avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni so'ngi besh yilda (37 598 ta) 725 taga ko'payganni quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli ko'paygani bilan ifodalash mumkin: savdo – 10 135 tadan 13 090 taga (o'sish 2 955 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 862 tadan 1 248 taga (o'sish 386 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 1 773 tadan 2 088 taga (o'sish 315 ta).

## Hududlar kesimida




2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda.

2024- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 799 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 779 ta;
- yirik korxonalar 20 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida




2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish





Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- avgust holatiga 32,1 mingtaga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,1 foizni tashkil etdi (352 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 40,7 foiz, sanoat – 20,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 4,2 foiz, qurilish – 7,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,5 foiz, tashish va saqlash – 4,4 foiz, axborot va aloqa – 1,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,3 foiz, boshqa turlari – 10,8 foiz.

## Hududlar kesimida




2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish





Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2024- yil yanvar-iyul oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2020-yilning mos davriga nisbatan 1 316 tadan 1 667 taga (o'sish 351 taga), yashash va ovqatlanish – 98 tadan 235 taga (o'sish 137 taga) ko'paydi.

## Hududlar kesimida




2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda


## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Farg'ona shahrida (16,6 foiz), Qo'qon shahri (10,3 foiz), Marg'ilon shahri (8,0 foiz), Oltiariq (6,0 foiz) va Uchko'prik (5,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida






## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida

So'x tumani	127
Farg'ona tumani	109
Qo'shtepa tumani	105
Yozyovon tumani	104
Farg'ona shahar	98
Oltiariq tumani	94
Dang'ara tumani	90
Toshloq tumani	86
Quvasoy shahar	78
Bag'dod tumani	72
Quva tumani	68
Beshariq tumani	67
Buvayda tumani	58
O'zbekiston tumani	54
Uchko'prik tumani	45
Rishton tumani	45
Furqat tumani	43
Qo'qon shahar	29
Marg'ilon shahar	23




O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot

yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

### Baliq ovlash va akvakultura




O'rmonchilik va yog'och tayyorlash

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarida xizmat ko'rsatish

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda


**Hududlar kesimida**

Qo'qon shahar	762
Farg'ona shahar	726
Marg'ilon shahar	601
Uchko'prik tumani	496
O'zbekiston tumani	396
Dang'ara tumani	365
Rishton tumani	351
Bag'dod tumani	328
Oltiariq tumani	307
Quva tumani	294
Toshloq tumani	277
Qo'shtepa tumani	270
Buvayda tumani	265
Farg'ona tumani	259
So'x tumani	202
Yozyovon tumani	199
Quvasoy shahar	196
Beshariq tumani	196
Furqat tumani	168



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. 2020-yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 82,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 17,4 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,9 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 84,5 foiz), 2,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 87,9 foiz), 0,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 76,0 foiz) va 1,6 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 108,1 foiz) tashkil etgan.



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	639
Qo'qon shahar	200
Marg'ilon shahar	171
Uchko'prik tumani	135
Oltiariq tumani	118
Toshloq tumani	115
Farg'ona tumani	110
Bag'dod tumani	109
Quva tumani	93
Yozyovon tumani	91
Rishton tumani	90
Quvasoy shahar	79
Dang'ara tumani	78
Qo'shtepa tumani	76
So'x tumani	70
Buvayda tumani	68
O'zbekiston tumani	65
Beshariq tumani	55
Furqat tumani	50

2 412

2024

3 791

2022

3 074

2020

2023

2 884

2021

3 507

O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 50,3 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 78,4 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,7 foiz ulushni va 83,4 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

458


Fuqarolik obyektlarini qurish

740

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

1 214


Bino va inshootlar qurish



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	1 765
Qo'qon shahar	1 439
Marg'ilon shahar	1 094
Uchko'prik tumani	723
Oltiariq tumani	687
Farg'ona tumani	639
Toshloq tumani	622
Dang'ara tumani	603
Quva tumani	587
O'zbekiston tumani	584
Buvayda tumani	578
Quvasoy shahar	576
Qo'shtepa tumani	533
Rishton tumani	482
Beshariq tumani	466
Bag'dod tumani	443
So'x tumani	440
Yozyovon tumani	432
Furqat tumani	397



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 13 043 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 57,9 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 91,7 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 32,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 94,7 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 94,9 foizni tashkil etdi.

1 255

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

4 260

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


7 575

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	507
Qo'qon shahar	172
Oltiariq tumani	141
Rishton tumani	140
Marg'ilon shahar	118
Farg'ona tumani	102
Quva tumani	100
Bag'dod tumani	97
O'zbekiston tumani	96
Quvasoy shahar	91
Qo'shtepa tumani	82
Dang'ara tumani	78
Toshloq tumani	75
Uchko'prik tumani	62
Buvayda tumani	56
Furqat tumani	55
Beshariq tumani	48
Yozyovon tumani	36
So'x tumani	32



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 117,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 6,1 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,9 foiz ulushini tashkil etdi.

127

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 961


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Farg'ona shahar	210
Qo'qon shahar	59
Marg'ilon shahar	53
Buvayda tumani	39
Oltiariq tumani	37
Rishton tumani	32
Quva tumani	31
Toshloq tumani	26
Qo'shtepa tumani	23
Bag'dod tumani	16
Uchko'prik tumani	15
Quvasoy shahar	13
Farg'ona tumani	12
O'zbekiston tumani	12
Beshariq tumani	12
Dang'ara tumani	10
Furqat tumani	7
So'x tumani	7
Yozyovon tumani	4



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 16,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 87,3 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 41,4 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 54,7 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 41,9 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 86,6 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	287
Qo'qon shahar	144
Marg'ilon shahar	77
Farg'ona tumani	73
Buvayda tumani	62
Oltiariq tumani	59
O'zbekiston tumani	57
Beshariq tumani	56
Quva tumani	56
Uchko'prik tumani	56
Toshloq tumani	54
Qo'shtepa tumani	46
Rishton tumani	40
Dang'ara tumani	40
Bag'dod tumani	36
So'x tumani	32
Furqat tumani	32
Yozyovon tumani	25
Quvasoy shahar	16



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 069 ta yoki 85,7 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

91,7 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,6 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,4 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 120,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,9 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 95,3 foizni tashkil etdi;

61

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

42




1 145

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Oltiariq tumani	340
Farg'ona shahar	245
Qo'qon shahar	154
Marg'ilon shahar	85
Toshloq tumani	64
Farg'ona tumani	56
O'zbekiston tumani	56
Quvasoy shahar	52
Quva tumani	49
Uchko'prik tumani	46
Beshariq tumani	44
Dang'ara tumani	43
Qo'shtepa tumani	37
Buvayda tumani	30
Furqat tumani	30
Rishton tumani	28
Bag'dod tumani	26
So'x tumani	24
Yozyovon tumani	23



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,7 foiz ulushini tashkil etdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 90,4 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 91,3 foizni;

pochta va kuryerlik yo'nalishi 100,0 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2 tani tashkil etdi;






### Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

2024- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik  
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish



Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish





Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lavgustdilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Hududlar kesimida




2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 32,1 mingta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 21,1 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar viloyatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 115,7 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 109,8 foiz, savdoda – 97,2 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

Farg'ona shahar **3 822**

Qo'qon shahar **2 782**

Marg'ilon shahar **1 885**

Uchko'prik tumani **1 116**

Oltiariq tumani **1 068**

Toshloq tumani **1 034**

Dang'ara tumani **984**

O'zbekiston tumani **973**

Qo'shtepa tumani **936**

Quva tumani **866**

Farg'ona tumani **834**

Quvasoy shahar **797**

Buvayda tumani **749**

Yozyovon tumani **741**

Beshariq tumani **615**

Bag'dod tumani **523**


Furqat tumani **474**

Rishton tumani **458**


So'x tumani **398**

## 2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda


### Yillar kesimida soni




### Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

**Xususiy korxonona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.


Xususiy korxonona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

## Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	50	5,0%	Buvayda tumani	12	3,2%
Rishton tumani	42	12,0%	Furqat tumani	10	6,3%
Farg'ona tumani	39	8,8%	Beshariq tumani	9	3,8%
Bag'dod tumani	30	7,6%	Qo'qon shahar	9	3,6%
So'x tumani	22	5,4%	Quva tumani	8	2,2%
Oltiariq tumani	17	4,4%	Toshloq tumani	8	3,4%
Uchko'prik tumani	15	4,8%	O'zbekiston tumani	3	1,7%
Quvasoy shahar	15	8,2%	Dang'ara tumani	2	1,3%
Qo'shtepa tumani	14	9,6%	Yozyovon tumani	2	1,3%
Marg'ilon shahar	14	3,5%			

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo 43,7 foiz, sanoat 18,3 foiz, yashash va ovqatlanish 9,1 foiz, qurilish 5,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 4,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 3,3 foiz, axborot va aloqa 1,8 foiz, tashish va saqlash 1,6 foiz, boshqa turlar 12,0 foiz.

## Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	1 002
Farg'ona tumani	443
So'x tumani	410
Marg'ilon shahar	402
Bag'dod tumani	397
Oltiariq tumani	385
Buvayda tumani	370
Quva tumani	368
Rishton tumani	350
Uchko'prik tumani	315

Qo'qon shahar	248
Toshloq tumani	237
Beshariq tumani	234
Quvasoy shahar	184
O'zbekiston tumani	179
Furqat tumani	158
Dang'ara tumani	154
Yozyovon tumani	150
Qo'shtepa tumani	146

2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda



**Oilaviy korxonalar** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti. Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


### Hududlar kesimida

Rishton tumani	67	13,2 %	Toshloq tumani	24	14,7 %
Oltiariq tumani	50	11,4 %	Quva tumani	23	16,8 %
Bag'dod tumani	46	18,0 %	Qo'qon shahar	22	7,9 %
O'zbekiston tumani	43	15,0 %	Uchko'prik tumani	20	9,2 %
Farg'ona shahar	37	8,0 %	Dang'ara tumani	18	6,9 %
Farg'ona tumani	35	17,6 %	Beshariq tumani	16	7,9 %
Marg'ilon shahar	33	13,1 %	Qo'shtepa tumani	15	10,6 %
So'x tumani	31	20,9 %	Buvayda tumani	8	5,3 %
Quvasoy shahar	29	12,5 %	Yozyovon tumani	7	10,8 %
Furqat tumani	26	12,9 %			


2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni so'ngi besh yilda 627 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 824 tadan 1 665 taga (o'sish 841 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 529 tadan 692 taga (o'sish 163 ta) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida


Rishton tumani	<b>508</b>	Beshariq tumani	<b>203</b>
Farg'ona shahar	<b>465</b>	Furqat tumani	<b>201</b>
Oltiariq tumani	<b>438</b>	Farg'ona tumani	<b>199</b>
O'zbekiston tumani	<b>287</b>	Toshloq tumani	<b>163</b>
Qo'qon shahar	<b>278</b>	Buvayda tumani	<b>150</b>
Dang'ara tumani	<b>261</b>	So'x tumani	<b>148</b>
Bag'dod tumani	<b>255</b>	Qo'shtepa tumani	<b>141</b>
Marg'ilon shahar	<b>252</b>	Quva tumani	<b>137</b>
Quvasoy shahar	<b>232</b>	Yozyovon tumani	<b>65</b>
Uchko'prik tumani	<b>218</b>		

## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot


2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

### Hududlar kesimida


Farg'ona shahar	24	Buvayda tumani	3
Qo'qon shahar	13	Beshariq tumani	2
Quvasoy shahar	8	O'zbekiston tumani	2
Uchko'prik tumani	6	Qo'shtepa tumani	1
Oltiariq tumani	5	Rishton tumani	1
Marg'ilon shahar	5	Furqat tumani	1
Farg'ona tumani	4	Yozyovon tumani	1
Bag'dod tumani	3		




2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,9 foizni tashkil etdi.

Yetakchi o'rinni 111 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Farg'ona viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Janubiy Koreya (ulushi 5,2 foiz), Qirg'iston (ulushi 4,8 foiz), Tojikiston (ulushi 3,3 foiz) va Qozog'iston (ulushi 1,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	<b>153</b>	Dang'ara tumani	<b>15</b>
Qo'qon shahar	<b>60</b>	Quva tumani	<b>14</b>
Quvasoy shahar	<b>35</b>	Furqat tumani	<b>10</b>
Uchko'prik tumani	<b>32</b>	Toshloq tumani	<b>10</b>
Marg'ilon shahar	<b>28</b>	Buvayda tumani	<b>9</b>
Oltiariq tumani	<b>20</b>	Rishton tumani	<b>8</b>
Farg'ona tumani	<b>19</b>	So'x tumani	<b>6</b>
Beshariq tumani	<b>19</b>	Yozyovon tumani	<b>5</b>
O'zbekiston tumani	<b>18</b>	Qo'shtepa tumani	<b>4</b>
Bag'dod tumani	<b>15</b>		

2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 224 tasi qo'shma korxonalar, 256 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## xorijiy korxonalar

## qo'shma korxonalar



2024-yil 1-avgust holatiga chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 480 ta korxonalardan 224 tasi qo'shma korxonalar, 256 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshiravgustotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatavgustotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- dekabrda "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
va tizimli xizmat  
koʻrsatish boʻlimi  
Tel.:(73) 241-96-46